

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

ABUL-QOSIM AZ-ZAHRAVIY (936-1013)NING TIB ILMLARI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Ibrohimova Gulhayo Mirabror qizi,
Farg‘ona Davlat Universiteti Tarixshunoslik,
manbashunoslik va tarixiy tadqiqot
usullari mutaxassisligi
1-kurs Magistranti
gulhayoibrohimova98@gmail.com
+998911429626

Annotatsiya: Maqolada Yevropada ro‘y bergan uyg‘onish davriga o‘zining ilmiy va amaliy faoliyati bilan sezilarli hissa qo‘shgan musulmon g‘arbi allomasi az-Zahraviy hamda uning amaliy tibbiyot, xususan, jarrohlik sohasidagi yutuqlari qamrovi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Muallif tomonidan az-Zahraviyning tibbiy bilimlari asosi, jarrohlik sohasida erishgan yutuqlarining Yevropaga tarqalishi va zamonaviy jarrohlik rivojidadagi o‘rni xususida ayrim fikrlar asosida yoritilgan.

Key words: Musulmon G‘arbi, tibbiyot, jarrohlik, “Kitob al -Tasrif”, tashxis, tasniflash, kasalliklar, qo‘lyozma, fiziologiya, gemofiliya.

РОЛЬ АБУ АЛЬ-КАСИМА АЗ-ЗАХРАВИ (936-1013) В РАЗВИТИИ МЕДИЦИНСКИХ НАУК

Аннотация: В статье теоретически обосновывается масштаб достижений мусульманского западного ученого аз-Захрави, внесшего своей научной и практической деятельностью значительный вклад в эпоху Возрождения в Европе, и его достижения в практической медицине, в частности, хирургии. Автор рассматривает основы медицинских знаний аз-Захрави, распространение его достижений в области хирургии в Европе, его роль в развитии современной хирургии.

Ключевые слова: Мусульманский Запад, медицина, хирургия, «Китаб ат-Тасриф», диагностика, классификация, заболевания, рукопись, физиология, гемофилия.

Kirish. Abu l-Qosim az-Zahraviy (936-1013) g‘arbda Albucasis nomi bilan tanilgan. Az-Zahraviy buyuk arab tabibi va jarrohi sifatida o‘rta asrlar Islom sivilizatsiyasining asosiy daholaridan biri hisoblanadi. Uning to‘liq ismi Abu al-Qosim Halaf ibn al-Abbos al-Zahraviy al-Ansoriydir. Az-Zahraviy Andalusiya yaqinidagi Zahra nomli shaharchada tavallud topgan. Shu bilan birga allomaning to‘liq ismidan ko‘rinadiki, u islom olamida mashhur bo‘lgan

ansoriylardan kelib chiqqan va ota-bobolari bilan birga Arabistondan musulmon Ispaniyasiga ko‘chib kelgan. Abu al-Qosim az-Zahraviy hayotining ko‘p vaqtini Kordova (Ispaniya)da o‘tkazgan. Az-Zahraviyning ilmiy merosi nafaqat tibbiyot, balki ilm-fan tarixining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Az-Zahraviyning ilmiy merosini o‘rganish, manbashunoslik nuqtai nazaridan, uning asarlarining tarixi va ulardan qanday foydalanilganini tahlil qilishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yevropada renessans hamda ilm-fan rivojlanishiga asosan qadimgi yunon-rim madaniyatining qayta tiklanishi sifatida qaraladi. Bu davr taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan musulmon G‘arbi va musulmon Sharqida faoliyat yuritgan allomalar ilmiy me’rosi maxsus tadqiq etilmagan. Adam Mez, Frederik Starr asarlarida musulmon olamida erishilgan yutuqlar umumiy tarzda tahlil etilgan. Xususan, az-Zahraviy asarlari XII asrdan boshlab arab tilidan lotinchaga tarjima etilgan va Yevropaga tarqalgan. Fuat Sezgin tomonidan tarjima qilingan “Kitob at-Tafsir” Sami Khalaf tomonidan yozilgan “Drawings and Pharmacy in Al-Zahrawi’s 10th-century surgical treatise” asarlarida az-Zahraviyning amaliy jarrohlik sohasidagi yutuqlari ma’lum darajada tahlil etilgan. Ammo sohaga oid ilmiy adabiyotlarda alloma ilmiy faoliyati, tibbiyot sohasidagi yutuqlar ko‘lami batafsil bayon etilmagan. “Arab tibbiyoti tarixi”, “Islom tibbiyoti”, “Musulmon Ispaniyasi” kabi asarlarda ham az-Zahraviy biografiyasi va uning asarlari bayoni qisqa tarzda bayon etilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan asarlardagi ma’lumotlar umumiy bo‘lib alloma hayoti, ilmiy me’rosi, tibbiyot rivojlanishi uchun qo‘shgan amaliy hissa batafsil bayon etilmagan va deyarli bir xil ma’lumotlar takrorlangan.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, kompleks yondashish, fanlararo o‘zaro bog‘liqlik kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Az-Zahraviy hozirgi kunda “zamonaviy jarrohlik otasi” sifatida butun dunyoga tanilgan. Buyuk tabib butun hayoti davomida tibbiyotni asosan, jarrohlik sohasini rivojlantirishga harakat qilgan. Jarrohlik sohasini boshlash, to‘g‘ri olib borish uchun avvalo, inson fiziologiyasi, inson tana a’zolarining joylashuvini aniq bilishi kerakligini alohida ta’kidlaydi. Az-Zahraviy nomi birinchi marta zamondosh tarixchi, faylasuf, ilohiyatchi andalusiyalik alloma Abu Muhammad ibn Hazm (993-1064) tomonidan tilga olinadi. Az-Zahraviy biografiyasi, nasl-nasabi ro‘yhati, u tavallud topgan joy va vafot etgan vaqti haqidagi batafsil ma’lumotlarni Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Nasr Futuh ibn Abdulloh ibn Futuh ibn Humayd ibn Yasil (alloma al-Humaydi nomi bilan mashhur) o‘zining “Jadhvat al-muktabis fi tarix ulama al-Andalus” (“On Andalusian Savants”) asarida berib o‘tgan.

Az-Zahraviy Kordovada ta’lim olgan va bu yerda tibbiyotdan talabalarni o‘qitgan, shuningdek, jarrohlik amaliyoti bo‘yicha tajribalar orttiradi. Abu al-Qosim Halaf ibn al-Abbos al-Zahraviy ummaviy hukmdor Abd-ar-Rahmon III (912-961) hukmdorligi davrida Kordovada tabib sifatida faoliyat yuritgan [8:44]. Shu o‘rinda Az-Zahraviy tibbiyot haqidagi asosiy bilimlarni VII asrda Vizantiyada faoliyat yuritgan yunonistonlik tabib Yeginalik Paulos, V asrda faoliyat yuritgan Rim imperatori Yulianing shaxsiy shifokori va tibbiyot yozuvchisi Oribasius

va o‘zidan avval faoliyat yuritgan tabiblar Dioskorid, Galen, Yuhanna ibn Masvayh, Roziy, Hunayn ibn Is‘hoq, Al-Hajjaj, Ibn Haytam kabilarning ilmiy merosini jiddiy o‘rgangan. Ushbu tabiblar faoliyatini to‘liq o‘rganish orqali Az-Zahraviy tibbiyotning turli sohalari bo‘yicha ilmiy faoliyatini yuksaltirdi. Dioskorid asarlaridan farmakologiyaga oid bilimlarni, Galen asarlaridan tibbiyot bo‘yicha umumiy qarashlar, inson anatomiyasi va fiziologiyasiga oid bilimlarni, Hunayn ibn Is‘hoqdan esa yunon-rim tabiblari asarlarining tarjimalarini o‘rgangan degan mulohazaga kelish mumkin. Chunki, allomaning o‘zi ham jarrohlik amaliyotini bajarishdan avval tabib inson fiziologiyasi, anatomiyasi haqida chuqur ilmlarga ega bo‘lishi, turli amaliyot o‘tkazishi kerakligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari alloma ta’lim olgan mashhur ilmiy markazlardan biri hisoblangan Kordova shahrida dunyoning turli davlatlaridan keltirilgan kitoblar mavjud edi. Ushbu ma’lumotlarga tayanib alloma dastlabki tibbiyotga oid bilimlarni avvalo, Kordovada mavjud kutubxona orqali egallagan va amaliyot orqali mustahkamlagan degan xulosaga kelish to‘g‘ri bo‘ladi.

“Kitob al-Tasrif” asari haqida umumiy ma’lumotlar. Az-Zahraviy hayoti va ilmiy faoliyatining umumiy jamlanmasi sifatida muallifning “Kitob al-Tasrif” (“Tibbiyotda tashxis qo‘yish va davolash bo‘yicha to‘plam”) asari beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu asar 30 jildidan iborat bo‘lib, unda tibbiyot, jarrohlik, anatomiya va dorivorshunoslik kabi bir qancha sohalarni muhokama qilinadi. Asar o‘z davrida ilmiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan va haligacha jarrohlik sohasida o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. “Kitob al-Tasrif” asari taxminan 50 yillik ilmiy izlanishlar, tibbiyot sohasida to‘plangan bilimlar va amaliyotda sinalgan tajribalar mahsulidir. Asarning qiymati shundaki, Sharq va G‘arb tibbiyotida shu davrgacha tibbiy uskunalar tasvirlanmagan hamda batafsil tavsiflanmagandi. “Kitob al-Tasrif” asarida esa 200ga yaqin jarrohlik uskunalari tasvirlangan, bu uskunalarining ko‘pi alloma tomonidan ixtiro qilingan. “Kitob al-Tasrif” asari 3 qismdan iborat bo‘lib ular quyidagicha:

- Kauterizatsiya va jarrohlikni davolash usuli;
- Ochiq jarrohlik usuluri, oftalmologiya va tish kasalliklari;
- Suyak sinishi, suyak chiqishi va ginekologiya kabilarga ajratilgan.

Asar tibbiyot sohasidagi noyob durdonalardan biri bo‘lib, tibbiyotning turli sohalari, dorivorshunoslik, fiziologiya, anatomiya, tish kasalliklari, buyrak va siydik yo‘llari kasalliklari va turli kasalliklarni davolash usullari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

“Kitob al-Tasrif” asarining Yevropaga tarqalishi. “Kitob al-Tasrif” asari XII asr ikkinchi yarmida Kremonlik Gerard tomonidan arab tilidan lotin tiliga tarjima qilingan [7:423]. Asarning lotincha tarjimasi Yevropa mamlakatlariga tez tarqalgan va universitetlarda asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Asar birinchi bo‘lib 1497-yilda Venetsiyada nashr etilgan, shundan keyin ketma-ket ikki marta 1499-1500-yillarda ham ushbu kitob chop etilgan. “Kitob al-Tasrif” asari 1520, 1532 va 1540-yillarda Venetsiyada qayta nashr qilingan va 1778-yilda lotin tilidagi tarjimasi hamda asl arab nusxasi bilan birga Oksfordda nashr qilingan. Bu asar fransuz tiliga 1861-yilda tarjima qilingan [10:5]. Asarning qayta-qayta nashr qilinishi va turli tillarga tarjima qilinishi uning qiymati naqadar yuqori ekanligini tasdiqlaydi. “Kitob al-Tasrif”

asari XVI asrgacha Sharq mutaxassisleri tomonidan qo‘llanma va o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanilgan, lotin tiliga qilingan tarjimalari tufayli esa G‘arbda xristian olamida ham keng qo‘llanilgan. Ushbu tibbiy ensiklopedik to‘plam qadimgi yunon-rim, arab faylasuf va tabiblari masalan Dioskorid, Galen, Yuhanna ibn Masvayh, Roziy, Hunayn ibn Is‘hoq, Al-Hajjaj, Ibn Haytam kabi muallimlar bilimlarini birlashtirgan. Bularning barchasi Abulkasis erishgan ilmiy bilimlardan dalolatdir. Jarrohlik haqidagi 30 bobdan iborat risola Kremonlik Gerard tomonidan (1187-yilda vafot etgan) lotinchaga tarjima qilingach, besh asr davomida Italiyaning Salerno tibbiy maktabida, Fransiyaning Monpelye va boshqa muhim Yevropa tibbiyot maktablarida jarrohlik bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Ushbu asarda tasvirlangan 200ga yaqin jarrohlik asboblari turli diagramma va rasmlar, shuningdek ulardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar bilan birga tavsiflangan. Ushbu jarrohlik uskunalari tibbiyot bo‘yicha bilimlarni oshirishga mo‘ljallangan eng qadimgi qo‘lyozmalardan biridir. Ushbu asar keyingi barcha arab mualliflari faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Boshqa tomondan Yevropada jarrohlik asoslari paydo bo‘lishiga shuningdek, O‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa renessansi davrida faoliyat yuritgan xristian jarrohlari, xususan, Rojer Frugard, Parmalik Roland, Ferrari, Lanfrank, Gi de Shalyak va boshqalar faoliyatiga asos bo‘lgan. Eng muhimi, Gi de Shalyakning 1363-yilda tugallangan Chirurgia magnasida tez-tez iqtiboslar keltirilgan shu tariqa o‘z ta‘sirini XVIII asrgacha saqlab qolgan[8:45].

Az-Zahraviyning tibbiyotda erishgan yutuqlari tavsifi. Tibbiyotda Az-Zahraviy tomonidan kiritilgan eng asosiy yangiliklar qatoriga:

- Dorilarni tayyorlashda sublimatsiya va dekantatsiya usullari;
- “Kitob al-Tasrif” asari orqali kasalliklar va ularni davolash usullari turli rasmlar orqali tasvirlangan va bu islom olamida yagona edi;
- “Kitob al-Tasrif” asari orqali 200ga yaqin jarrohlik uskunalari tasvirlangan va ishlatish usullari bayon etilgan;
- “Kitob al-Tasrif” asari orqali birinchi bor gemofiliya kasalligining ona orqali o‘g‘il farzandga yuqishini tavsiflab bergan;
- “Kitob al-Tasrif” asarida 325ga yaqin kasalliklar va ularni davolash usullarini bayon etgan;
- Homilador ayollar tug‘ruq jarayoni va doyalik qilishdagi amaliyotlar tavsiflab bergan;
- Jarrohlik amaliyotini bajarishdan avval anatomiya va fiziologiyani o‘qitish kerakligini ta’kidlagan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Yevropada “jarrohlik otasi” deya nom olgan az-Zahraviy va uning ilmiy me‘rosini o‘rganish, tibbiyot sohasidagi yutuqlarini tahlil etish orqali ko‘plab yevropalik uyg‘onish davri vakillari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilganini anglashimiz mumkin. Zahraviy tomonidan tibbiyotga kiritilgan yangiliklar keyinchalik boshqa olimlar yutug‘i sifatida e’tirof etila boshlandi. Az-Zahraviy sharq va g‘arb

tibbiyotini ma’lum darajada yuqori pog‘onaga ko‘tardi hamda uning asarlari, kashf etgan 200dan ortiq tibbiy jihozlari hozirgi kungacha amaliy tibbiyot sohasida asosiy fundament bo‘lib qolmoqda. Zero yuqorida az-Zahraviyning tibbiyot ilmida qilgan kashfiyotlari zamonaviy jarrohlik amaliyotida hozir ham qo‘llanilmoqda va o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abulcasis. La Chirurgie d’ Abulcasis. Translation by Lucien Leclerc, J.B. Bailliere Editions, Paris 1861
2. Amr SS, Tbakhi A (2007) Abu Al Qasim Al Zahrawi (Albucasis): pioneer of modern surgery. Ann Saudi Med 27(3):220–221
3. Arvide Cambria LM (2016) Abulcasis Al-Zahrawi, the surgeon of Al-Andalus. Eur Sci J special edition 240–247
4. Donald Campbell. Arabian Medicine and its influence on the Middle Ages. Amsterdam; 1974. 220p.
5. George Sarton. Introduction to the History of Science. vol.1 Copyright, 1927 Carnegie Institution of Washington. 839p.
6. Isidore Singer. The Jewish Encyclopedia. New York: Funk & Wagnalls, (1901-1906).
7. Le D Lucien Leclerc. Histoire de La Medecine Arabe. Paris; 1876. 542
8. Manfred Ullmann. Islamic Medicine. Edinburg University Press; 1978. 160
9. Markatos K, Androutsos G, Karamanou M, Kaseta M, Korres D, Mavrogenis A (2018) Spine deformities and trauma in Avicenna’s canon of medicine. Int Orthop. <https://doi.org/10.1007/s00264-018-4278-z>.
10. Mohammad Reza Noras, Musalreza Hajzadeh, Arash Arianpoor (2015) A short review on Abulcasis achievements in dentistry based on his book: Al-Tafsir li-man-Ajaz an-il-talif, Res Hist Med. 2015. № 4(1).
11. Moreno-Otero R (2013) Abulcasis, the father of modern surgery. Med Arch 67(2):151
12. Nabri IA (1983) El Zahrawi (936-1013 AD), the father of operative surgery. Ann R Coll Surg Engl 65:132–134
13. Roth, Norman. Ibn Shaprut, Hasdai. Medieval Iberia: An Encyclopedia. Gerli, E. Michael, ed. 1st ed. 2003. print
14. Sadek, M.M. (1983). The Arabic materia medica of Dioscorides. Canada: Les editos du sphinx. ISBN 2-920123-02-5.
15. Sahar A.H. Al-Majali (2017) Arab muslims’ medicine and pharmacy in Andalusia: 138-172 A.H./755-788 A.D. Research on Humanities and Social Sciences.
16. Safet Halilovic’ (2017) Islamic civilization in Spain-a magnificent example of interaction and unity of religion and science. p. 64-72.
17. Симонян Р.З. История медицины с древнейших времен до современности.- Чебоксары: Издательский дом “Среда”, 2020. -224с.